



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA’LIM VAZIRLIGI  
HAY’ATI MAJLISINING BAYONI**

2021-yil 29 - iyul

5 -son

Toshkent sh.

**Raislik qiluvchi:** A.V.Shin – Maktabgacha ta’lim vaziri

**Ishtirok etdilar:** Hay’at a’zolari, vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari va mas’ul xodimlar (*ro‘yxat bo‘yicha*).

**KUN TARTIBI:**

**O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligida 2021-yilning  
1-yarim yilligi davomida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan  
ishlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

*(Shin, Onorboyev, Begimkulov, Muslitdinov, Dadaboyev, ..., Shin)*

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirigi markaziy apparati tarkibiy bo‘limlari, idoraviy mansub tashkilotlar, xududiy birlashmalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish, ko‘rib chiqish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi.

Murojaatlarni O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan talablar asosida ko‘rib chiqilishi yuzasidan kundalik nazorat o‘rnatilgan bo‘lib, murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha mas’ul xodimlarning mas’uliyatini oshirish yuzasidan belgilangan tartibda tegishli ishlar olib borilmoqda.

Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘limlari, idoraviy mansub tashkilotlar, hududiy boshqarma va bo‘limlariga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni belgilangan muddatlarda, o‘rnatilgan tartibda va reglament asosida ko‘rib chiqilishini ta’minlash, ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha aniq choralarni belgilab, o‘z vaqtida murojaat mualliflarini xabardor etish, yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib kelinmoqda.

Vazirlik va quyi tizim tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqilishi yuzasidan tahliliy ma’lumotlar shakllantirilib, muntazam ravishda yig‘ilishlarda muxokama etilib, mazkur yo‘nalishdagi yuzaga

kelgan kamchiliklarni bartaraf etish va Qonunda belgilangan vazifalar ijrosini o'z vaqtida hamda sifatli ta'minlash yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 1-fevraldagi "2020-yilda Vazirlar Mahkamasi apparati, vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari va mahalliy ijro hokimiyati organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari to'g'risida"gi 8-sonli Rayosat majlisi qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan aniq choralar belgilandi.

Jumladan, joriy yilning fevral oyida vazirlikning Xay'at yig'ilishida 2020-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari muhokama etilib, Xay'at qarori bilan tegishli topshiriq va ko'rsatmalar berildi hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq choralar belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2021-yil 17-fevraldagi Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash samaradorligini oshirish yuzasidan 18/1-299-sonli topshiriq'i hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-martdagi "Tadbirkorlik sub'ektlarining murojaatlarida qayd etilgan muammolarni tezkorlik bilan hal etish yuzasidan Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Sanoatqurilish bank ATB, Xududgazta'minot AJ, Navoiy va Namangan viloyatlari hokimliklari rahbarlari tomonidan olib borilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini o'rganish yakunlari to'g'risida"gi 28-sonli Rayosat majlisi qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan tegishli choralar belgilanib, ijrosi ta'minlanmoqda.

Mazkur xujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2021-yil 2-fevraldagi 35-topshiriq hamda 2021-yil 30-martdagi 01-03/4-74 sonli xati bilan vazir o'rinbosarlariga, vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlariga, Qaraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha ta'lim vaziri, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari va Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasiga aniq topshiriq va ko'rsatmalar yetkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-apreldagi "2021-yil 1-chorakda Vazirlar Mahkamasi apparati, vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari va mahalliy ijro hokimiyati organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari to'g'risida"gi 51-sonli Rayosat majlisi qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan aniq choralar belgilandi, jumladan, joriy yilning 30-aprel kuni vazirlikning Xay'at yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi markaziy apparatida, idoraviy mansub tashkilotlar, Qaraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi hamda xududiy boshqarmalarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish ko'rib chiqish natijalari muhokama etildi.

Rayosat majlislari qarorlarida jismoniy va yuridik shaxslarning, jumladan tadbirkorlarning murojaatlarini o'z vaqtida, sifatli ko'rib chiqish, shaxsiy va sayyor qabullarning natijadorligini oshirish, ish yuritish tizimini tashkil etish, tahlil va

nazorat ishlarini samarali amalga oshirish masalalarida aniq vazifalar belgilanib, ijrosi nazorat qilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-iyundagi “Tadbirkorlik sub’ektlarining murojaatlarida qayd etilgan muammolarni tezkorlik bilan hal qilish yuzasidan Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat aktivlarini boshqarig agentligi, “Mikrokreditbank” ATB, Andijon va Xorazm viloyatlari hokimliklari rahbarlari tomonidan olib borilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini o‘rganish yakunlari to‘g‘risida”gi 76-son Rayosat majlisi qarori bilan tasdiqdangan kompleks chora-tadbirlar rejasiga asosan vazirlikning chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanib, ijro uchun xududiy boqarmalarga yetkazilib, belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan tizimli nazorat o‘rnatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-apreldagi “Aholi va tadbirkorlik sub’ektlariga ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari to‘g‘risida ma’lumot berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 179-son qaroriga asosan vazirlikning buyrug‘i chiqarilib, mazkur buyruq bilan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi “Ishonch telefoni” xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida NIZOM tasdiqlandi hamda vazirlikning idoraviy aloqa markazi (Ishonch telefoni) joriy yilning 10-iyun kundan avtomatlashtirilgan tizimda faoliyat yurita boshladi.

Pandemiya davrida fuqarolarga yengillik va yetarli sharoitlar yaratish maqsadida sanitar qoidalariga amal qilingan holda vazirlik rahbariyati va mas’ul xodimlari tomonidan fuqarolar qabuli tashkillashtirib kelinmoqda.

Murojaatlarni O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan talablar asosida ko‘rib chiqilishi yuzasidan kundalik nazorat o‘rnatilgan bo‘lib, murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha mas’ul xodimlarning mas’uliyatini oshirish yuzasidan belgilangan tartibda tegishli ishlar olib borildi.

Mazkur masalada olib borilayotgan ishlarni joylarda o‘rganish va amaliy yordamlar ko‘rsatish ishlari olib borildi, jumladan: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Namangan, Buxoro, Farg‘ona, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrining tumanlarida fuqarolarning yozma va og‘zaki murojaatlarini ko‘rib chiqish xolatlari o‘rganilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va takrorlanishini oldini olish yuzasidan joyida amaliy yordamlar ko‘rsatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2021-yil 23-iyul kuni “Aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini mutlaqo yangicha tashkil qilish chora-tadbirlari”ga bag‘ishlangan kengaytirilgan videoselektorda berilgan topshiriqlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2021-yil 16-iyuldagi 18/1-1855-son topshiriq xatida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash yuzasidan joriy yilning 24-iyul kuni Maktabgacha ta’lim vaziri raisligida vilesektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Videoselektorda vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari va idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha ta’lim vaziri o‘rinbosari, Toshkent shahar maktabgacha ta’lim bosh

boshqarmasi va viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari boshliqlari ishtirok etdilar va yig'ilish ishtirokchilariga aniq topshiriqlar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 1-iyuldagi "2021-yilning 1-yarim yilligida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparati, vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari va mahalliy ijro hokimiyati organlarida jismoniy va yuridik shslarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari to'g'risida"gi 107-son Rayosat Majlisi bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilandi.

Hisobot davrida bevosita Maktabgacha ta'lim vazirligiga jismoniy va yuridik shaxslardan jami **2946 ta** murojaatlar kelib tushgan.

Vazirlikka jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan jami **2946 ta** murojaatlardan:

- **627 tasi** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasidan;
- **426 tasi** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi "Ishonch telefoni" orqali;
- **251 tasi** O'zbekiston Respublikasi Bosh Vazirining Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonalari orqali;
- **950 tasi** vazirlik va idoralar orqali hamda vazirlikka to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan jismoniy shaxslarning murojaatlari;
- **380 tasi** yuridik shaxslardan;
- **83 tasi** vazirlikning ishonch telefoni orqali;
- **79 tasi** vazirlik rahbariyati tomonidan o'tkazilgan qabullarda;
- **150 tasi** xududlarda o'tkazilgan sayyor qabullarda kelib tushgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlar soni **627 tani** tashkil etgan bo'lib, ulardan 417 tasi qanoatlantirilgan, 165 tasiga tushuntirishlar va xuquqiy maslahatlar berilgan, 18 tasi ko'rmasdan qoldirilgan. Ko'rib chiqish natijalari bo'yicha murojaatlarning qanoatlantirish darajasi **71,5 foizni** tashkil etdi.

Kelib tushayotgan murojaatlar masalalari kesmida tahlil qilinganda, ular asosan:

- davlat-xususiy sheriklik asosida yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish yuzasidan – **671 ta**;
- maktabgacha ta'lim tashkilotiga farzandini joylashtirish masalasida – **407 ta**;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va xodimlarining xatti-xarakatlaridan noroziligi to'g'risida – **217 ta**;
- maxalla xududida yangi MTT tashkil etish va mavjudlarini ta'mirlash hamda ta'minoti masalasida – **160 ta**;

Bevosita vazirlik markaziy apparati tomonidan ko'rib chiqilgan barcha murojaatlarni **qanoatlantirilganlik ko'rsatkichi 51,6 foizni** tashkil etgan.

Hisobot davrida 79 nafar fuqarolar vazir va vazir o'rinbosarlari, 53 nafar fuqarolar boshqarma va bo'lim boshliqlarining shaxsiy qabullarida bo'ldilar.

Vazir va vazir o'rinbosarlari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, Toshkent, Surxondaryo, Navoiy, Andijon viloyatlarida "Sayyor qabullar" tashkil etildi, ularda 150 nafar fuqarolarning murojaatlari qabul qilinib, tegishli tartibda ko'rib chiqildi.

Hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi va vazirlikning quyi tashkilotlariga jismoniy va yuridik shaxslardan jami 17 295 ta murojaatlar kelib tushgan.

Ulardan 7450 tasi Virtual qabulxona, 4 574 tasi og'zaki, 5254 tasi yozma 5 tasi veb-sayt, 12 tasi elektron pochta orqali kelgan murojaatlar.

Bevosita vazirlik va xududiy boshqarmalarga kelib tushgan 9845 ta murojaatardan 5169 tasi qanoatlantirilgan, 4317 tasiga tushuntirishlar berilgan, 19 tasi ko'rmasdan qoldirilgan, 12 tasi rad etilgan, 59 tasi tegishliligi bo'yicha boshqa tashkilotlarga yuborilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan 7450 ta murojaatlarning o'rtacha qanoatlantirish darajasi 60 % ni tashkil etdi.

Yuqorida qayd etilgan ijobiy natijalar bilan bir qatorda, hisobot davrida quyidagi kamchiliklarga ham yo'l qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin.

Joylardagi xududiy tashkilotlarda xalq bilan keng qamrovli muloqatlarni, tushuntirish va targ'ibot ishlarini yetarli darajada olib borilmaganligi sababli jami 17295 ta murojaatlardan eng ko'pini Qashqadaryo viloyatida – 1995ta, Surxondaryo viloyatida - 1592ta, Toshkent viloyatida – 1591ta Samarqand viloyatida - 1255ta, Farg'ona viloyatida – 1243ta, Andijon viloyatida – 1189 ta va Toshkent shahrida – 1180 tani tashkil etgan.

Shuningdek, ayrim xududiy tashkilotlar rahbarlari tomonidan shaxsan fuqarolarni qabul qilish masalasiga yetarli e'tibor qaratilmagan.

Bu borada, Qashqadaryo viloyatida 640 nafar, Toshkent viloyatida 483nafar, Surxondaryo viloyatida 281 nafar, Farg'ona viloyatida 190 nafar, Andijon viloyatida 177 nafar, Toshkent shahrida 170 nafar, Samarqand viloyatida 162 nafar fuqarolar qabul qilingan bo'lsa, Xorazm viloyatida 50 nafar Qoraqalpog'iston Respublikasida 55 nafar, Namangan viloyatida 73 nafar, Jizzax viloyatida 81 nafar fuqarolar qabul qilingan xalos.

Joylarda "Sayyor qabullar"ni o'tkazilishida ham yetarli e'tibor qaratilmaganligini quyidagi raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

O'tkazilgan "Sayyor qabullar"da Navoiy viloyatida 299 nafar, Qashqadaryo viloyatida 215 nafar, Samarqand viloyatida 167 nafar, Andijon viloyatida

154 nafar, Farg‘ona viloyatida 108 nafar fuqarolar qabul qilingan bo‘lsa, Namangan viloyatida 16 nafar, Jizzax viloyatida 17 nafar, Buxoro viloyatida 27 nafar, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 28 nafar, Xorazm viloyatida 35 nafar qabul qilingan xalos.

Murojaatlarni mukammal o‘rganib chiqmay, ularni qanoatlantirish darajasiga yetarli e‘tibor qaratilmaslik xolatlari, fuqarolarning e‘tiroziga va takroriy murojaatlarning kelib tushishiga sabab bo‘lmoqda.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish hamda murojaatlar bilan ishlash natijalarini ommaviy axborot vositalari orqali yoritish masalalari yo‘lga qo‘yildi.

Tizimdagi masalalar “O‘zbekiston-24” “O‘zbekiston”, “Yoshlar” teleradiokanallari, “Xalq so‘zi” “Pravda vostoka”, “Uchitel Uzbekistana”, kabi gazeta va jurnallarda hamda O‘zA, “kun.uz”, “daryo.uz” kabi elektron ommaviy-ahborot vositalari orqali va vazirlik veb-sayti ([www.mdo.uz](http://www.mdo.uz)), feysbukdagi sahifasi orqali keng yoritib borilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, maktabgacha ta‘lim tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘z vaqtida, puxta va sifatli ko‘rib chiqilishini ta‘minlash, natijadorligini oshirish maqsadida **Hay‘at yig‘ilishi qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 1-iyuldagi 2021-yilning 1-yarim yilligida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparati, vazirliklar, idoralar, xo‘jalik birlashmalari va mahalliy ijro hokimiyati organlarida jismoniy va yuridik shxlarning murojaatlarini ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risida”gi 107-son Rayosat Majlisi qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

**2. Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari va idoraviy mansub tashkilotlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha ta‘lim vazirligi, Toshkent shahar maktabgacha ta‘lim bosh boshqarmasi va viloyatlar maktabgacha ta‘lim boshqarmalari** tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlarini o‘z vaqtida, sifatli ko‘rib chiqilishi yuzasidan olib borilayotgan ishlar yetarli darajada emasligi ko‘rsatib o‘tilsin.

Qashqadaryo (A.Alimardonov), Surxondaryo (Z.To‘lananov), Toshkent (S.Baratova), Samarqand (Z.Jo‘raev), Farg‘ona (Yu.Xodjaeva) Andijon (A.Azimov) viloyat hamda Toshkent shahar (N.Faziljonova) maktabgacha ta‘lim boshqarmalarida **murojaatlarni kamaytirish masalasiga;**

Xorazm (I.Yakubova) Qoraqalpog‘iston Respublikasida Namangan (X.Yusupova), Jizzax (F.Solieva) **fuqarolarning shaxsiy qabuliga;**

Namangan (X.Yusupova), Jizzax (F.Solieva) Buxoro (F.Latipov) Xorazm (I.Yakubova) viloyat maktabgacha ta‘lim boshqarmalari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha ta‘lim vazirligida (J.Usnatdinova) **“Sayyor qabul”larni muntazam o‘tkazilishiga** yetarli e‘tibor qaratilganligi hamda yetarli nazorat o‘rnatilganligi **ko‘rsatib o‘tilsin.**

Yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rilmay, yana takrorlangan taqdirda rahbar va mas'ul xodimlarga nisbatan Qonun talablari asosida tegishli choralar ko'rilishi yuzasidan **ogohlartirilsinlar**.

### **3. Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha ta'lim vaziri, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari va Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi boshliqlariga:**

– **bir hafta muddatda** mazkur Xay'at majlisi topshiriqlarini muhokama etib, murojaatlar bilan ishlashning ahvoli tanqidiy muhokama qilinsin, xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan mas'ul xodimlarga nisbatan tegishli choralar ko'rilsin;

– kelib tushgan murojaatlarni qonun talablariga muvofiq o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqishda mas'ul xodimlarning mas'uliyatini yanada kuchaytirish, takroriy murojaatlarning ko'payishini oldini olish, ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalari orqali kelib tushgan har bir murojaatga e'tibor qaratilsin;

– guruh bo'lib kelgan murojaat etuvchilarni o'rnatilgan tartibda qabul qilish, qabul natijalari bo'yicha shu kunning o'zida va kelgusida ularning murojaatlarini ko'rib chiqish yakuni to'g'risida batafsil axborot kiritib borilsin;

– har oy yakunida murojaatlar bilan ishlash masalasi videokonferensiya aloqasi orqali yig'ilishlarda, har chorak yakuni bo'yicha kengaytirilgan Xay'at majlislarida atroflicha muhokama etish, aniqlangan tizimli muammo va kamchiliklarni bartaraf etish hamda kelgusida natijadorlikni oshirish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirilsin;

– ijtimoiy tarmoqlarda ko'tarilayotgan muammoli masalalar bo'yicha aholi murojaatlarini chuqur tahlil qilgan holda, ularni hal etish choralari ko'rish va ommaviy-axborot vositalari orqali tezkor munosabat bildirish, shuningdek, murojaatlar bilan ishlash masalalarini har oyda ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borish amaliyotini yo'lga qo'yilsin;

– murojaatlar bilan ishlash natijalari yuzasidan aholi bilan samarali muloqatni kengaytirish maqsadida matbuot xizmatlari ishlarini faollashtirish, aholi murojaatlarida ko'tarilayotgan masalalarni hal etilishi yuzasidan ommaviy-axborot vositalari orqali chiqishlar ko'paytirilsin;

– joylarda fuqarolarni va tadbirkorlik sub'ektlari vakillarini sayyor qabul qilishni tizimli tashkil etilsin, murojaatlarni ularning ishtirokida tezkorlik bilan hal etish masalalariga alohida e'tibor qaratilsin;

– tizimli muammolarni aniqlash, aholining murojaatlarini ko'rib chiqishda rahbarlar tomonidan yo'l qo'yilayotgan sansalorlik va rasmiyatchilik holatlariga chek qo'yish, barcha darjadagi rahbarlarning javobgarligini oshirish, tahlil va nazorat ishlarini kuchaytirish choralari ko'rilsin.

### **4. Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'limlari va idoraviy mansub tashkilotlariga:**

– **bir hafta** muddatda mazkur Xay’at majlisi topshiriqlarini muhokama etib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va kelgusida takrorlanishini oldini olish yuzasidan aniq choralar belgilansin;

– vazirlikda fuqarolar va tadbirkorlarni qabul qilishda (yo‘nalishi bo‘yicha) o‘rnatilgan tartibga amal qilmaslik holatlari uchrayotganligi ko‘rsatib o‘tilsin, qabulga kelgan fuqarolar faqat boshqarma, bo‘lim boshliqlari, ular sababli ravishda ish joyida bo‘lmaganlarida ularning o‘rinbosarlari tomonidan amalga oshirilishi ta‘minlansin;

– fuqarolarning yozma va og‘zaki murojaatlarini murojaat mualliflari ishtirokida to‘liq va sifatli ko‘rib chiqilishi, ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha muallifning yozma munosabatini olgan holda, belgilangan muddatlardan kechiktirmay javob xatlarini taqdim etilishi ta‘minlansin;

– jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishda qonun talablariga to‘liq amal qilinishi ta‘minlansin, tahlil va nazorat ishlari kuchaytirilsin.

#### **5. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo‘limi (B.Dadabaev)ga:**

– mazkur Xay’at qarorida belgilangan vazifalar ijrosini vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘limlari va idoraviy mansub tashkilotlarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi, viloyatlar boshqarmalari va Toshkent shahar Bosh boshqarmasida belgilangan muddatlarda ta‘minlinishi yuzasidan nazorat va tahlil ishlari olib borilsin, ularga amaliy yordamlar ko‘rsatilsin;

– jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini Qonun talablari asosida ko‘rib chiqilishiga mas‘uliyatsizlik va e‘tiborsizlik bilan yondoshgan vazirlikning mas‘ul xodimlari va xududiy boshqarma boshliqlariga tegishli choralar ko‘rilishi yuzasidan takliflar kiritib borilsin;

– vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘limlari va idoraviy mansub tashkilotlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi, viloyatlar boshqarmalari va Toshkent shahar Bosh boshqarmasida murojaatlarni muallif ishtirokida o‘z vaqtida to‘liq va sifatli ko‘rib chiqilishi, ularni ijobiy hal etish choralarini ko‘rilishi bo‘yicha nazorat va tahlil ishlari kuchaytirilsin, talabchanlik oshirilsin;

– pandemiya sharoitida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish ishlari belgilangan talablarga amal qilgan holda tashkil etilsin, bu jarayonga tegishli bo‘lim va boshqarmalarning rahbarlari va mas‘ul xodimlari jalb qilinsin;

– jismoniy va yuridik shaxslarni vazirlik rahbariyati tomonidan qabuli hamda Sayyor qabullarni tasdiqlangan jadval asosida tashkil etilishi ta‘minlansin va nazoratga olinsin.

**6. Nazorat-tahlil bo‘limi (L.Berdieva) ikki kun muddatda Xay’at majlisi qarori** vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘limlari va idoraviy mansub tashkilotlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi, viloyatlar boshqarmalari va Toshkent shahar Bosh boshqarmasiga muhokama etish



hamda murojaatlar bilan ishlashning natijadorligini oshirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish uchun yetkazilishi ta'minlansin.

**7. Ushbu qarorning ijrosini samarali tashkil etishga tegishli yo'nalishlar bo'yicha mas'ul va shaxsiy javobgar etib vazirning birinchi o'rinbosari B.Onorboyev, vazir o'rinbosarlari U.Begimkulov va N.Muslitdinov belgilansin.**

8. Mazkur Hay'at qarori ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

**Hay'at raisi,  
Maktabgacha ta'lim vaziri**



**A.Shin**